Xalq ta'limi vazirligi
2021-yil 13-fevraldagi
1-son Hay'at majlisi bayoniga
1-ILOVA

Xalq ta'limi vazirligining 2021-yil I yarim yillikka mo'ljallangan
I S H R E J A S I

T/r	Ustuvor vazifalar O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar: Boshqarma, bo'limlar; Hududiy boshqarmalar; Boshqarma rahbarlari va mutaxassislar
I. Vazirlikning 2021 yil I yarim yillikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalari			
1.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalarning so'zsiz va sifatli ijrosini ta'minlash.	I yarim yillik	Vazirlik markaziy apparatining tarkibiy bo'linmalari rahbarlari
2.	2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini 2021-yilda amalga oshirishga oid **"Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"** davlat dasturi ijrosini so'zsiz va sifatli ta'minlash.	I yarim yillik	Vazirlik markaziy apparatining tarkibiy bo'linmalari rahbarlari
3.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining respublika hududlariga tashriflari yakunlari bo'yicha tasdiqlangan bayonlarida tegishli topshiriqlar ijrosini ta'minlash.	I yarim yillik	Vazir o'rinbosarlari, Vazirlik markaziy apparatining tarkibiy bo'linmalari rahbarlari
II. Umumta'lim maktablari faoliyatini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish, moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash va boshqa ishlari			
4.	Umumta'lim maktablarinig faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kompleks chora tadbirlarni amalga oshirish.	Reja asosida	Maktablar boshqarmasi (E.Murodov)
5.	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qituvchilarga metodik xizmat ko'rsatish tartibini ishlab chiqish.	2021-yil mart	O'quv jarayonini metodik jihatdan ta'minlashni rivojlantirish boshqarmasi (D.Ermatov)

6.	Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan birgalikda 2021- yil 1-martga qadar malakali pedagog, ilmiy xodimlar, psixolog va xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda Milliy o'quv dasturini (keyingi o'rinlarda – Dastur) ishlab chiqsin va unda quyidagilarni nazarda tutsin: tayanch o'quv rejasini takomillashtirish va umumiy haftalik o'quv yuklamasini kamaytirish hamda o'zaro uzviy bog'liq fanlarni birlashtirish hisobiga ularning sonini optimallashtirish; o'quvchilarni kelgusi hayotga tayyorlash va ularga o'z bilim va ko'nikmalaridan amaliyotda foydalanishni o'rgatuvchi malaka talablarini sinflar kesimida ishlab chiqish; fanlararo o'zaro aloqadorlik va sinflar kesimida davriylikka to'liq rioya qilgan holda o'quv dasturlari o'rtasida uzviylikni ta'minlash.	2021-yil mart	O'quv jarayonini metodik jihatdan ta'minlashni rivojlantirish boshqarmasi (D.Ermatov)
7.	"Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "STEAM" fanlari bo'yicha zamonaviy dars o'tish metodikasi" nomli uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.	2021-yil iyun	O'quv jarayonini metodik jihatdan ta'minlashni rivojlantirish boshqarmasi (D.Ermatov)
8.	2021-yil 1-mayga qadar Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi hamda Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan birgalikda Dasturni ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalarida ekspertizadan hamda keng jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilishini ta'minlash.	2021 yil 1-may	O'quv jarayonini metodik jihatdan ta'minlashni rivojlantirish boshqarmasi (D.Ermatov)
9.	2021-yil 1-martga qadar malakali pedagog, ilmiy xodimlar, psixolog va xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish.	2021-yil 1-mart	O'quv jarayonini metodik jihatdan ta'minlashni rivojlantirish boshqarmasi (D.Ermatov)
10.	Tuman (shahar)lar hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri kesimida umumta'lim muassasalarining reytingini tuzish.	2021-yil 1-yanvardan boshlab	Ta'lim sifati monitoringi boshqarmasi (L.Xo'jakulov)
11.	Tuman (shahar)lar kesimida tuzilgan reytingda birinchi o'rinni egallagan umumta'lim muassasalari direktorlarini mahalliy budjet mablag'lari hisobidan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 10 baravari miqdorida bir martalik rag'batlantirish.	2021-yil 1-yanvardan boshlab	Ta'lim sifati monitoringi boshqarmasi (L.Xo'jakulov)
12.	Attestatsiyadan o'tish muddati kelgan pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlash jarayonini nazorat qilish.	2021-yil fevral	Ta'lim sifati monitoringi boshqarmasi (L.Xo'jakulov)

13.	Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda Davlat test markazi bilan birgalikda Ona tili va Adabiyot (O'zbek tili va adabiyoti, Rus tili va adabiyoti, Qoraqalpoq tili va adabiyoti) fanidan testlarni tayyorlash.	2021-yil fevral-aprel	Ta'lim sifati monitoringi boshqarmasi (L.Xo'jakulov)
14.	Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda Davlat test markazi bilan birgalikda Matematika fanidan testlarni tayyorlash.	2021 yil fevral-aprel	Ta'lim sifati monitoringi boshqarmasi (L.Xo'jakulov)
15.	Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan birgalikda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining **(OECD) PISA** dasturi doirasidagi tajriba-sinov jarayonlari respublikaning barcha hududlaridan tanlab olinadigan **83 ta** maktablarda o'tkazilishini va unda **4720** nafar o'quvchilar ishtirok etishini ta'minlash.	2021-yil aprel-may	Ta'lim sifati monitoringi boshqarmasi (L.Xo'jakulov)
16.	Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan birgalikda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi **IEA** tomonidan amalga oshiriladigan **PIRLS** dasturining asosiy tadqiqot jarayonlari respublikaning barcha xududlaridan tasodifiy tanlab olingan **181 ta** maktablarda o'tkazish. Tanlab olingan maktablarning **193 ta 4-sinflarida** o'qiyotgan taxminan **5 500 nafar** o'quvchilar ishtirok etishini ta'minlash.	2021-yil aprel	Ta'lim sifati monitoringi boshqarmasi (L.Xo'jakulov)
17.	Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda Davlat test markazi bilan birgalikda kimyo va biologiya fanlaridan testlarni tayyorlash.	2021-yil mart-may	Ta'lim sifati monitoringi boshqarmasi (L.Xo'jakulov)
18.	Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan hamkorlikda attestatsiya jarayonini o'tkazish.	2021-yil mart	Ta'lim sifati monitoringi boshqarmasi (L.Xo'jakulov)
19.	Pedagog xodimlarga malaka toifasini berish tizimini qayta ko'rib chiqish, shaffoflik va avtomatlashtirish asosidagi yangi tizimni joriy qilish.	2021-yil 1-iyun	Ta'lim sifati monitoringi boshqarmasi (L.Xo'jakulov)
20.	Asosiy fan olimpiadalarning hududiy (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar) bosqichini tashkil etish.	2021-yil yanvar	Olimpiadalar departamenti (U.Rahmonov), Hududiy boshqarmalar

21.	Xalqaro fan olimpiadlarida ishtirok etuvchi O'zbekiston Respublikasi terma jamoasini shakllantirish maqsadida matematika, fizika, kimyo, biologiya, informatika va axborot texnologiyalari fanlaridan saralash fan olimpiadalarini tashkil etish.	2021-yil fevral-mart	Olimpiadalar departamenti (U.Rahmonov), Hududiy boshqarmalar
22.	Qo'qon universiteti tashabbusi bilan tashkil etilayotgan Matematika fanidan "Qo'qon olimpiadasi"ning hududiy bosqichini tashkil etish.	2021-yil fevral	Olimpiadalar departamenti (U.Rahmonov), Hududiy boshqarmalar
23.	Asosiy fan olimpiadalarining Respublika bosqichini o'tkazish.	2021-yil may	Olimpiadalar departamenti (U.Rahmonov)
24.	Matematika, fizika, kimyo, biologiya, informatika va axborot texnologiyalari fanlaridan xalqaro olimpiadalarida O'zbekiston Respublikasi terma jamoalarining ishtirokini ta'minlash.	2021-yil iyul-avgust	Olimpiadalar departamenti (U.Rahmonov)
25.	Mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda qo'shimcha fan olimpiadalarini tashkil etish: Abu Ali ibn Sino nomidagi Biologiya olimpiadasi – Andijon viloyati; Abu Rayxon Beruniy nomidagi Kimyo olimpiadasi – Toshkent shahri; Mirzo Ulug'bek nomidagi Matematika olimpiadasi – Sirdaryo viloyati; Ahmad al-Farg'oniy nomidagi Fizika olimpiadasi – Navoiy viloyati; Al-Xorazmiy nomidagi Informatika va axborot texnologiyalari olimpiadasi – Samarqand viloyati.	2021-yil mart	Olimpiadalar departamenti (U.Rahmonov), Hududiy boshqarmalar
26.	Chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirishga oid normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va o'rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2021-yil 1-may	Olimpiadalar departamenti (U.Rahmonov), O'quv jarayonini metodik jihatdan ta'minlashni rivojlantirish boshqarmasi (D.Ermatov), Ta'lim sifati monitoringi boshqarmasi (L.Xo'jakulov)

27.	Xalq ta'limi tizimida Chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish.	2020-yil 1-may	Olimpiadalar departamenti (U.Rahmonov), O'quv jarayonini metodik jihatdan ta'minlashni rivojlantirish boshqarmasi (D.Ermatov)
28.	Davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalariga qabul kvotalarini belgilash hamda qabul jarayonlarini nazorat qilish.	2021-yil may-iyun	Olimpiadalar departamenti (U.Rahmonov), Hududiy boshqarmalar
29.	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yilning 15-dekabrida 2634-raqam bilan ro'yxatga olingan Nizom talablariga muvofiq, Vazirlik va uning tarikibidagi Respublika budjetidan moliyalashtiriladigan ta'lim muassasalarining 2021-yil uchun xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, o'rganish va natijalariga ko'ra xulosa va tavsiyalar tayyorlash.	2021-yil yanvar-mart	Ichki audit va moliyaviy nazorat boshqarmasi (D.Adilbekov), Moliyalashtirish va buxgalteriya hisobi boshqarmasi (J.Shokirov), Moliya departamenti (I.Siradjev)
30.	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-raqam bilan ro'yxatga olingan Nizom va boshqa amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq xalq ta'limi tizimidagi muassasalar va tashkilotlarda moliyaviy-xo'jalik faoliyatidagi huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.	I yarim yillik (doimiy)	Ichki audit va moliyaviy nazorat boshqarmasi (D.Adilbekov) D.Adilbekov boshqarma boshlig'i, T.Salomov boshliq o'rinbosari va barcha boshqarma xodimlari
31.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagi "Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3231-sonli qaroriga muvofiq aniqlangan qonun buzilish holatlari, ularni sodir etishga imkoniyat yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida xalq ta'limi tizimdagi muassasalar va tashkilotlarga bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish.	I-yarim yillik (o'rganish natijalariga ko'ra)	Ichki audit va moliyaviy nazorat boshqarmasi (D.Adilbekov)
32.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4938-sonli qaroriga muvofiq budjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq rivojlantirish dasturlarining natijalari yuzasidan monitoring ishlarini yo'lga qo'yish va tahlil qilish.	Har chorak hisobot davridan keyin 20 sanagacha	Ichki audit va moliyaviy nazorat boshqarmasi (D.Adilbekov)

33.	O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi (2017-yil 11-sentyabrdagi O'RQ-445-son) Qonuniga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini tegishliligi bo'yicha ko'rib chiqish va mavjud muammolarni bartaraf etish.	I yarim yillik (doimiy)	Ijro intizomi boshqarmasi (J.Mominkulov), Murojatlar bilan ishlash sho'basi (B.Alimkulov)
34.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoniga muvofiq umumta'lim muassasalari direktorlarini lavozimga tayinlash hamda ish beruvchining tashabbusiga ko'ra lavozimidan ozod etishni tegishli xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari bilan kelishilgan holda amalga oshirish.	I yarim yillik	Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi (A.Xasanov), hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) bo'limlari
35.	O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga asosan O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi bayrami hamda "1-oktabr O'qituvchi va murabbiylar" kuni munosabati bilan mustaqilligimizni mustahkamlashda, yosh avlodni Ona-vatanga muhabbat va istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashda katta hissa qo'shib kelayotgan, vatanparvarlik fazilatlari bilan el-yurt o'rtasida hurmat qozongan, xalq ta'limi tizimida ko'p yillardan buyon samarali mehnat qilib kelayotgan ibratli yurtdoshlarimizni davlat mukofotlari bilan taqdirlash uchun 600 nafardan ortiq pedagog xodimlar nomzodini shakllantirish va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga tavsiya etish.	2021-yil aprel	Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi (A.Xasanov), hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) bo'limlari
36.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qaroriga muvofiq tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari boshqaruv xodimlarining bilim va ko'nikmalarini baholash.	2021-yil mart-iyun	Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi (A.Xasanov), tegishli tarkibiy bo'linmalar Hududiy boshqarmalar, hamkor idoralar va tashkilotlar
37.	O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan elchixonalar, horijiy tashkilotlar, ularning vakolatxonalari hamda kompaniyalar bilan o'rnatilgan tartibda hamkorlik aloqalarini olib borish.	I yarim yil davomida	Xalqaro aloqalar bo'limi (T.Aglamov)
38.	Xalqaro va diplomatik protokol tartiblariga muvofiq Vazirning (*zarur hollarda vazir o'rinbosarlarining*) chet el tashkilotlari, diplomatik vakolatxonalari vakillari bilan uchrashuvlarni tashkil etish.	So'rovga asosan	Xalqaro aloqalar bo'limi (T.Aglamov)

39.	Xalq ta'limi sohasiga ko'maklashish bo'yicha respublikaga kelayotgan horijiy fuqarolarning (volontyorlar, chet tillari va fan o'qituvchilari va h.k.) viza yoki vaqtincha yashash muddatlarini uzaytirish masalalarida o'rnatilgan tartibda tashkiliy ko'mak ko'rsatish.	So'rovga asosan	Xalqaro aloqalar bo'limi (T.Aglamov)
40.	Vazirlik faoliyatiga taalluqli xalqaro konferensiyalar va seminarlarda tizim xodimlarining ishtirokini ta'minlash bo'yicha tashkiliy ishlarni amalga oshirish.	I yarim yil davomida	Xalqaro aloqalar bo'limi (T.Aglamov)
41.	Xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan kelishuv, memorandumlarning loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish. Xalqaro hamkorlar bilan kelishish masalalarida o'rnatilgan tartibda tashkiliy ko'mak ko'rsatish.	So'rovga asosan	Xalqaro aloqalar bo'limi (T.Aglamov)
42.	Hukumat qarori bilan tasdiqlangan xalqaro aloqalarga doir dasturlarni ("Yo'l xaritalari") amalga oshirilishi bo'yicha hisobotlarni tayyorlash va o'rnatilgan tartibda tegishli idoralargan taqdim etib borish.	I-yarim yil davomida	Xalqaro aloqalar bo'limi (T.Aglamov)
43.	O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni hamda "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonunchilikka o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar tayyorlash.	2021-yil mart	Yuridik bo'lim (X.Asrorov) va tegishli tarkibiy bo'linmalar
44.	Vazirlik tomonidan ishlab chiqilayotgan (qabul qilinayotgan) normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar loyihalarining qonunchilik tizimiga muvofiqligi ustidan nazoratni olib borish.	2021-yil aprel	Yuridik bo'lim (X.Asrorov)
45.	Umumta'lim maktablarida o'quvchi-yoshlar tomonidan sodir etiladigan turli g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarning oldini olishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlash.	2021-yil fevral	Ma'naviy-ahloqiy tarbiya boshqarmasi (A.Tagayev)

46.	Hududlarda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ilm-fanga keng jalb qilish, nufuzli ilmiy maktablarni shakllantirish. Ilmiy va startap loyihalarni soddalashtirilgan tartibda yoshlarning ilmiy salohiyatini oshirishga qaratilgan "Ilmiy dastur"ni amalga oshirish va moliyalashtirish.	2021-yil 1-mart	O'quvchi va yoshlar tashkilotlari bilan ishlash boshqarmasi (A.Abdullayev)
47.	"Kamalak yulduzlari", "Yilning eng faol yoshlar yetakchisi", "Yil sardori", "Talabalar festivali", "Intellektual o'yinlar" haftaligi, "Yil talabasi" singari ko'rik-tanlovlar va musobaqalar tashkil etish.	Yil davomida	O'quvchi va yoshlar tashkilotlari bilan ishlash boshqarmasi (A.Abdullayev)
48.	Yoshlar siyosatini samarali amalga oshirishda Andijon viloyati tajribasini o'rganish maqsadida mamlakatimizning barcha hududlaridan faol yoshlarni jalb qilgan holda "Andijon yoshlari forumi"ni tashkil etish.	2021-yil 20-aprel	O'quvchi va yoshlar tashkilotlari bilan ishlash boshqarmasi (A.Abdullayev)
49.	Ta'lim muassasalarida muntazam ravishda dars mashg'ulotlariga qatnashmaydigan, noqonuniy ravishda chet elga chiqib ketgan o'quvchilarni ta'limga qaytarish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar holati (saylanma tarzda tanlangan viloyat xalq ta'limi boshqaruv idoralari va ta'lim muassasalari misolida)ni o'rganish.	2021-yil may	Ma'naviy-ahloqiy tarbiya boshqarmasi (A.Tagayev)
50.	Ta'lim muassasalarida tarbiyasi og'ir, ijtimoiy jihatdan havfli ahvolda bo'lgan o'quvchi-yoshlar bilan yakka tartibda shug'ullanish ishlarini tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar holati (saylanma tarzda tanlangan viloyat xalq ta'limi boshqaruv idoralari va ta'lim muassasalari misolida)ni o'rganish.	2021-yil iyun	Ma'naviy-ahloqiy tarbiya boshqarmasi (A.Tagayev)
51.	Xalq ta'limi vazirligi markaziy apparati, respublika tashkilotlari, hududiy boshqarma va bo'limlari xodimlarining faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini (KPI) ishlab chiqish.	2021-yil mart	Strategik tahlil, progressiv pedagogik texnologiyalar va ta'lim sohasida yangi tashabbuslarni joriy etish boshqarmasi (Sh.Muxamyedov)
52.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoniga muvofiq umumta'lim maktablarida Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha maslahatchi lavozimini joriy etish.	I yarim yillik	Maktabdan tashqari ta'lim, sport va turizmni tashkil etish boshqarmasi (M.Karabayev), Moliya departamenti (I.Siradjev), Hududiy boshqarmalar, hamkor idoralar va tashkilotlar

53.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni 9-bandi ijrosi bo'yicha xalq ta'limi bo'limi mudirlari va metodistlariga, umumta'lim muassasalari direktorlariga hamda tuman (shahar) kesimida tuzilgan reytingda birinchi beshta o'rinlarni egallagan umumta'lim muassasalarining 2 nafar o'qituvchilariga O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi hisobidan sanatoriylarda dam olish uchun bepul yo'llanmalar berish.	I yarim yillik	Maktabdan tashqari ta'lim, sport va turizmni tashkil etish boshqarmasi (M.Karabayev), Hududiy boshqarmalar, hamkor O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi
54.	Aholi salomatligini mustahkamlash, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan samarali jismoniy tarbiya tizimini yaratish hamda hayotga tatbiq etish maqsadida "Jismoniy tayyorgarlik darajasi" sport sinovlarini o'tkazish va rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish.	2021-yil 1-may	Maktabdan tashqari ta'lim, sport va turizmni tashkil etish boshqarmasi (M.Karabayev), Hududiy boshqarmalar, hamkor O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi
55.	Aholini ommaviy sport turlariga keng jalb qilish orqali 2021-yilda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi pedagog xodimlar va o'quvchi yoshlarning ulushini 19 foizdan 25 foizga yetkazish.	I yarim yillik	Maktabdan tashqari ta'lim, sport va turizmni tashkil etish boshqarmasi, "Yoshlik" JTSJ, Hududiy boshqarmalar, hamkor idoralar va tashkilotlar
56.	O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining markazlashgan tadbirlari bo'yicha talab etiladigan mablag'lar miqdorini aniqlash va moliyalashtirish.	2021-yil 30-mart	Moliya departamenti (I.Siradjev)
57.	2021-2022-yil uchun 12 nomdagi o'quv qurollari to'plami ("Prezident sovg'asi")ni yakka tartibda uy sharoitida ta'lim olayotgan nogiron bolalar va kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun qishki kiyim to'plamlarini xarid qilish hamda zarur bo'lgan mablag'larni ajratish. Ajratilgan mablag'lar bo'yicha xarajatlar smetasini tasdiqlash va Moliya vazirligidan ro'yxatdan o'tkazish.	2021-yil 30-mart	Moliya departamenti (I.Siradjev)
58.	Vazirlik markaziy apparatining markazlashtirilgan xarajatlari bo'yicha hamda vazirlik tomonidan moliyalashtiriladigan respublika darajasidagi tashkilot va ta'lim muassasalarining 2021-yil uchun yillik xarajatlar smetasini tuzish va tasdiqlash.	2021-yil 30-mart	Moliya departamenti (I.Siradjev)
59.	Tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari qoshida tashkil etilayotgan rag'batlantirish jamg'armalari mablag'laridan foydalanish tartibini ishlab chiqish.	2021-yil 30-mart	Moliya departamenti (I.Siradjev)

	Ishlab chiqilgan tartib asosida xalq ta'limi tizimining hududiy bo'linmalar xodimlarini qo'shimcha moddiy qo'llab-quvvatlashga (100 foizgacha har oylik ustama belgilash hamda mukofot va moddiy yordam berish) hamda maktab direktorlarini ish faoliyati samaradorligi va maktab o'quvchilarining ta'lim sifati darajasidan kelib chiqib qo'shimcha rag'batlantirish.		
60.	Xalq ta'limi tizimi bo'yicha 2022-yilgi budjet buyurtmanomasi hamda 2023-2024-yilgi byujdet prognozlarini shakllantirish.	2021-yil 30-iyun	Moliya departamenti (I.Siradjev)
61.	Tizimdagi 10 008 ta maktablarda faoliyat olib borayotgan 700 mingdan ortiq xodimlarni yil davomida o'z vaqtida oylik ish haqi bilan ta'minlash.	Doimiy ravishda	Moliya departamenti (I.Siradjev)
62.	Tizimdagi 10 008 ta maktablarda faoliyat olib borayotgan xodimlarga xomiladorlik nafaqalarini to'lash.	Doimiy ravishda	Moliya departamenti (I.Siradjev)
63.	Koreya Eksimbanki loyihasi doirasida iqtisod qilingan mablag'larni o'zlashtirish bo'yicha imzolanadigan qo'shimcha kelishuv loyihasini vazirlik idoralar bilan kelish va imzolash.	2021-yil mart	Investitsiyalarni jalb qilish va ularning monitoringi bo'limi (E. Rustamov)
64.	Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) bilan loyiha bo'yicha muzokaralar o'tkazish.	2021-yil mart, iyun	Investitsiyalarni jalb qilish va ularning monitoringi bo'limi (E. Rustamov)
65.	Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar bo'yicha ishlarni olib borish.	2021-yil mart, iyun	Investitsiyalarni jalb qilish va ularning monitoringi bo'limi (E. Rustamov)
66.	Ichki va xorijiy tender savdolarida ishtirok etish.	Doimiy ravishda	Investitsiyalarni jalb qilish va ularning monitoringi bo'limi (E. Rustamov)
67.	Barcha xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy investorlar mablag'lari hisobidan jalb qilinadigan kredit va grant mablag'larini monitoringini yuritish.	Doimiy ravishda	Investitsiyalarni jalb qilish va ularning monitoringi bo'limi (E. Rustamov)
68.	Xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy banklar vakillari bilan uchrashuv, seminar va konferensiyalarda ishtirok etish.	Doimiy ravishda	Investitsiyalarni jalb qilish va ularning monitoringi bo'limi (E. Rustamov)

69.	Koreya Eksimbanki loyihasi doirasida imzolangan qo'shimcha kelishuv asosida xaridlarni amalga oshirish.	2021-yil iyun	Investitsiyalarni jalb qilish va ularning monitoringi bo'limi (E. Rustamov)
70.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 28-dekabrdagi PQ-4936-son qarori ijrosini ta'minlash borasida respublikadagi jami 351 ta ob'ektda qurilish-montaj, loyihalash jarayonlarini amalga oshirish. Ob'ektlarda qurilish-montaj ekspertiza xulosalarini olish va qurilish-pudrat tashkilotlari bilan shartnomalar imzolash choralarini ko'rish.	2021-yil yanvar-mart	Qurilish boshqarmasi (S.Qutliyev), "Injiniring kompaniyasi" (A.Usmanov), hududiy xalq ta'limi boshqarmalari S.Qutliyev, A.Usmanov va boshqarma mutaxassislari
71.	Xalq ta'limi muassasalarini 2021-2022-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorlash uchun (ko'mir, suyuq yoqilg'i ehtiyojini, joriy va kapital tamirlash, singan oynalarni hamda qozon almashtirish ehtiyoji) manzilli ro'yxatini shakllantirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasiga taklif kiritish.	2021-yil aprel-iyun	Qurilish boshqarmasi (S.Qutliyev), hududiy xalq ta'limi boshqarmalari
72.	Investitsiya va boshqa dasturlar asosida qurilish-ta'mirlash ishlarini yakuniga yetkazish: xalq ta'limi muassasalarini 2021-2022-yillar kuz-qish mavsumida barqaror ishlashga kompleks tayyorlash bo'yicha mahalliy davlat hokimliklari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari tomonidan olib borilayotgan ishlar holati to'g'risida tahliliy monitoring olib borish; yakuniy natijalar asosida yuqori turuvchi tashkilotlar hamda mahalliy davlat hokimliklariga murojaat qilish; Xalq ta'limi vazirining videoselektor yig'ilishida muhokama qilish hamda vazirlik rahbariyatiga takliflar tayyorlash.	2021-yil iyul-sentabr	Qurilish boshqarmasi (S.Qutliyev), "Injiniring kompaniyasi" (A.Usmanov), hududiy xalq ta'limi boshqarmalari
73.	Ta'lim muassasalari infratuzilmasini yaxshilash borasida tegishli xatlovlar o'tkazish, ularni ichimlik suvi bilan ta'minlash va atrofini o'rash choralarini ko'rish. Isitish tizimlari va issiqlik qozonlarini yangilash borasidagi 2022-yil uchun smeta xarajatlari bo'yicha takliflar tayyorlash.	2021-yil oktabr-noyabr	Qurilish boshqarmasi (S.Qutliyev), hududiy xalq ta'limi boshqarmalari